

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son 5/8

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 5/8 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Тахририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Намазова Умида Нормуродовна</i> ФРАГМЕНТЫ ИЗ ИСТОРИИ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ (1929-1945 ГОДЫ).....	10-15
<i>Эрназаров Туйгун Раджабович</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ- ГУБЕРНАТОРСТВА: КЛЮЧЕВЫЕ МОМЕНТЫ И ДОСТИЖЕНИЯ	16-21
<i>Хужаниязов Уктам Ешбаевич</i> “ҚОРАҚАЛПОҚФИЛЬМ” СТУДИЯСИ ХУЖЖАТЛИ ФИЛЬМЛАРИДА ТАРИХИЙ МАВЗУЛАР ТАЛҚИНИ	22-27
<i>Шаимкулов Азамат Холмуратович</i> ҚАЙТА ҚУРИШ ДАВРИ МАТБУОТИДА ИҚТИСОДИЙ МАСАЛАЛАР ТАЛҚИНИ	28-38
<i>Муродов Ҳалим Салимович</i> ТУРИЗМ РИВОЖИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР	39-46
<i>Юлдашев Саиданварбек Бахромжон ўғли</i> ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИНГ– ҚОРАХОНИЙЛАР ТОМОНИДАН ЗАБТ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН	47-51
<i>Shonazarova Nargiza</i> TOSHKENT SHAHRIDA “OBOD MAHALLA” DASTURI VA UNING IJROSI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR	52-57
<i>Axmadova Nafisa Axmad qizi</i> O‘ZBEKISTON VA FRANSIYA MADANIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI	58-64
<i>Qodirova Ra’no Mamirjonovna</i> O‘ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA 1930-YILLARNING IKKINCHI YARIMIDA TARIX FANINING O‘QITILISHI	65-70
<i>Yunusxo‘jayev Habibulla Zafar g‘o‘li</i> SHARQDA KUCHLI IJTIMOIIY NIHOYA TIZIMI TARIXI	71-75
<i>Нарбеков Абдикамил</i> НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА В ТУРКЕСТАНЕ И ЕГО СУЩНОСТЬ	76-80
<i>Alimova G‘unchaxon Baxadirovna</i> JAMIYAT TARAQQIYOTINING TARIXIY RIVOJLANISH ASOSLARI DIN VA DAVLAT MISOLIDA	81-85
<i>Jumanazarova Fotima</i> XOTIN QIZLAR BANDLIGINI TA‘MINLASH TIZIMINING SHAKLLANISH JARAYONI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI	68-93
08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ	
<i>Ziyodilloev Khushnud Rahimboevich</i> PORTFOLIO OPTIMIZATION OF COMMERCIAL BANK CREDITS: A LITERATURE REVIEW	94-100

<i>Hamrayev Amirzoda</i> ISLOMIY MOLIYA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI TASHKIOTLAR KAPITAL STRUKTURASI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	101-109
<i>Xaitbobaeva Nigora Bakmatatovna</i> T'UQIMACHILIK SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANIISH B'YIYCHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	110-119
<i>Xalilov Qahramon Qurbonboyevich</i> MINTAQADA TURIZM HUNARMANDCHILIK KLASTERNI SHAKLLANTIRISHNING DESTINATSION MODELI.....	120-132
<i>Maxmudov Tursunpuulat Davronovich</i> INVESTITSIYA MANBALARINING MINTAQAGA IKTISODIYETIGA TA'BSIRI	133-144
<i>Ishchanova Salomat</i> KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING FAOLIYATINING O'RNI.....	145-150
<i>Muydinova Zilola Voxid qizi</i> CHEGARA BOJXONA POSTLARI FAOLIYATIDA "AVTOMATLASHTIIRILGAN IY'LOVCHI XARAKATI" MOBIL ILOVASINI JORIY ETISH ORQALI IKTISODIY TAHLILNI TAKOMILLASHTIIRISH.....	151-158
<i>Samandarov O'gabek, Ismoilov Shohjahon</i> TURIZMNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	159-164
09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Saidova Kamola Uskanbaevna</i> ФЕНОМЕН СВОБОДЫ ДЛЯ ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕСТВА: КОМПАРАТИВИСТСКИЙ АНАЛИЗ	165-173
<i>Omonturdiyev Orzu G'afforovich</i> INSONNING MA'NAVIY MOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLARNING AHAMIYATI	174-179
<i>Ochilova Guzаль Aralovna</i> YUKSAK MA'NAVIYAT-MANFAATLAR BIRLIGINI TA'MINLASHNING MU'XIM OMILI.....	180-185
<i>Nurmatova Umida Jalolidinovna</i> MUTOLAA, SAVODXONLIK VA TA'LIMNING ANTINOMIK XUSUSIYATLARI.....	186-192
<i>Vafayeva Dilafruz Artikovna</i> AHMAD YASSAVIY TASAVVUFIIY TA'LIMOTIDA MA'NAVIY BARKAMOLLIK.....	193-198
<i>Karimov Zafarbek Ataboyevich</i> IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARINING SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.....	199-202
<i>Bozorova Ro'zigul Sharofovna</i> MEHRSIZLIK HODISASINI KELITIRIB CHIQUVCHI OMILLAR	203-212
<i>Xudoyberdieva Anorabonu Hayotovna</i> DINIY MANBALARDA IJTIMOIIY HAMKORLIK O'OYALARI	213-218
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUF FALSAFASIDA GO'ZALLIKNING IMMANENT JIHATLARI	219-224

<i>Dehqonov Behzod Baxtityorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QURISHDA YETTI PIRNING BAG'RIKENGLIK G'OYALARINI O'RNI VA AHAMIYATI	225-230
<i>Abdullayeva Firuza Sharipovna</i> NASIRIDDIN TUSIYNING IDROK NAZARIYASI VA KOMILLIK FALSAFASI	231-236
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> SHIHOBUDDIN UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL -MAORIF" ASARI VA UNDA ILGARI SURILGAN G'OYALAR	237-243
<i>Ибрагимов Солижон Эргашович</i> АХБОРОТ ХУРУЖИ ВА "ОММАВИЙ МАДАНИЯТ" ТАҲДИДИ.....	244-251
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Qodirova Mukaddas Tog'ayena</i> BIZNES DISKURSINING MURAKKAB LINGVISTIK TABIATI.....	252-257
<i>Abdullayev Ikramjon Xashimdjanoich</i> DIFFERENT APPROACHES TO THE QUANTITATIVE-STATISTICAL CHARACTERISTICS OF PARTS OF SPEECH IN THE ENGLISH LANGUAGE	258-265
<i>Hamroyeva Sharifa Shukur qizi</i> TARJIMADA MILLIY SO'ZLARNING BERILISHI (OYBEKNING "NAVOIY" ROMANI INGLIZCHA TARJIMASI MISOLIDA)	266-271
<i>Olimova Gulfiza Muradullayevna</i> BADIY SAN'AT TURLARINING XORAZM DOSTONLARIDA QO'LLANILISHI.....	272-281
<i>Айниддинов Иқрориддин Шарифович</i> АДАБИЙ МАНБАЛАРДА АШРАФ САМАРҚАНДИЙНИНГ ТАРЖИМАИ ҲОЛИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ	282-287
<i>Turaeva Dilfuza Daminovna</i> O'ZBEK TILIDA OBRAZLI SO'ZLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	288-295
<i>Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna</i> LISONIY GRADASIYANING MORFOLOGIK, LEKSIK-SEMANTIK SATHDA PARADIGMA SIFATIDA NAMOYON BO'LISHI	296-305
<i>Ashurova Maftuna Asqar qizi, Yuldoshev Rustam Dilshod ugli</i> LINGUOCULTURAL COMPARATIVE ANALYSIS OF IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	306-311
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARDA KOMPARATIV FRAZELOGIK BIRLIK LARNING KOMMUNIKATIV TA'SIRI XUSUSIDA	312-317
<i>Шамақсудова Саодат Хидоятовна</i> МАССМЕДИА АСПЕКТНИНГ МЕДИАМАТН ШАКЛИГА КЕЛИШИДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР.....	318-324
<i>Шатова Ирина Юрьевна</i> ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ЛЕКСИКИ ПО РОДУ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	325-330
<i>Nortoyeva Nodira Muhammadaliyevna</i> FRAZELOGIK DERIVATLARNI KONTEKSTLARDA ISHLATILISHINING KOGNITIV ASOSLARI	331-335

<i>Alimjanova Shohsanam Azamat qizi</i> KO'P MA'NOLI IBORALARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI	336-340
<i>Турниязова Шахноза Нигматовна</i> МАТНДАГИ БОҒЛАНИШЛИЛИК ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	341-347
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i> INGLIZ ADABIYOTI TUSHUNCHALARINING XILMA -XILLIGI	348-352
<i>Aminova Dilnoza Hikmatullayevna</i> THE IMPORTANCE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE ORIGIN OF MILITARY TERMINOLOGY	353-358
12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Исломқулова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи</i> ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ ВА МОҲИЯТИ	359-365
<i>Mamatallyev To'liqin Xushmamat o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY TA'LIM HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI	366-378
13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Saidov Jur'at Sodirovich</i> МАКТАВГАСНА ТА'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA TARBIYA BERISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	379-384
<i>Yusupaliyeva Shaxnoza Hakimjanovna,</i> ТЕХНИК ОЛИЙ О'QUV YURTLARIDA OO'ZAKI NUTQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USUL VA METODLARI	385-390
<i>Tadjixodjaeva Эльвира Рашидовна</i> ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДОВ ИГРОПЕДАГОГИКИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ	391-396
<i>Тўрахонова Барно Турсунбой қизи</i> БЎЛАЖАК ПЕДАГОГ-ПСИХОЛОГЛАРНИ ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИШГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИЯТЛАРИ	397-406
<i>Ashurova Sitora Erkinovna</i> USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION	407-412
<i>Каримжоновна Мунаввар Ибрагимовна</i> ХИЗМАТ ИТЛАРИНИ МАХСУС ЙЎНАЛИШГА ТАЙЁРЛАШДА УНГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ (Божхона қўмитасининг Миллий кинология маркази мисолида).....	413-421
<i>Xamirayev Rustam Abdirazakovich</i> VOLEYBOLCHILARDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARINI ТАКОМИЛЛАСHTIRISH	422-426
<i>Хашимова Масуда Камилжановна</i> КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К ПРОЦЕССУ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ НАУК	427-435
<i>Бердикулова Насиба Эркинжоновна</i> СОДЕРЖАНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ И ИНТЕГРАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ	436-442

Saidnazarova Gulshan Bolta qizi

AL-BUXORIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI O'RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO

SIFATIDA443-448

09.00.00–Фалсафа фанлари

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna
Alfraganus universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedراسи dotsenti

TASAVVUF FALSAFASIDA GO'ZALLIKNING IMMANENT JIHATLARI

Annotatsiya. Maqolada inson ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan tashqi omillar to'g'risida fikr-mulohazalar yuritilgan. Insonning ichki go'zalligi, tashqi go'zalligining tasavvufiy talqini ifodalangan. Buyuk allomalarning go'zallikka oid qarashlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: falsafa, go'zallik, inson, tasavvuf, ma'naviyat, axloq.

Tursunkulova Shakhnoza Tuychievna
Associate Professor of the
Department of Social Sciences
Alfraganus university

IMMANENT ASPECTS OF BEAUTY IN THE PHILOSOPHY OF SUFISM

Abstract. The article contains comments about external factors that have a negative impact on human spirituality. A mystical interpretation of the inner beauty and outer beauty of a person is expressed. The views of great scientists on beauty are analyzed.

Key words: philosophy, beauty, human, mysticism, spirituality, ethics.

Турсункулова Шахноза Туйчиевна
доцент кафедры социальных наук
Университета Альфраганус

ИММАНЕНТНЫЕ АСПЕКТЫ КРАСОТЫ В ФИЛОСОФИИ СУФИЗМА

Аннотация. В статье содержатся комментарии о внешних факторах, оказывающих негативное влияние на духовность человека. Выражено мистическое толкование внутренней красоты и внешней красоты человека. Анализируются взгляды великих учёных на красоту.

Ключевые слова: философия, красота, человек, тасаввув, духовность, этика.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N30>

Kirish

XXI asrda internet, uyali aloqa vositalari, axborot va globallashuv jarayonlari, migratsiya, tibbiyotdagi innovatsion kashfiyotlar sodir bo'ldi. Ammo, bu o'zgarish va taraqqiyot ma'naviyat bilan mutanosiblikda bo'ldi deb aytish juda qiyin. Jinoyat, fohishalik, giyohvandlik, ichkilikvozlik, qotillik, mehrsizlik, shavqatsizlik, boshqa yurtlarga ketish avj oldi. Ma'naviy

qoloqlik va qashshoqlik kuchaydi. Inson ta'siri ostida yuzaga kelgan ekologik fojialar, urushlar, kelishmovchilik va tahdidlar ma'naviy qashshoqlikning natijasida yuzaga keldi.

Hozirgi kunda insonning virtual olamda vaqtini o'tkazishi, bir-biriga yetarlicha e'tibor bermaslik, baxtli yashash orzusi (Amerika, Koreya, Rossiya, Yevropa davlatlariga borishga intilish) va boshqa voqea hodisalar inson oldiga ma'naviyat muammolarini keltirib chiqarmoqda. Mana shunday muammolar o'z yechimini ko'tayotgan bir paytda tariximizga nazar solish, o'zligimizni anglash, ajdodlarimiz ma'naviy merosini o'rganish juda muhimdir. Ayniqsa, tasavvuf ta'limotida va mutasavvif allomalar asarlarida ma'naviyat masalasini, uning qadriyatli jihatlarini o'rganish lozim.

Adabiyotlar sharhi

Inson kamolotining ma'naviy asoslari (Yusupov E, 1998), alvido dunyo, alvido dunyo, assalom oxirat (Kunrapa Zakoi, 1996), komil inson konsepsiyasining mohiyati (Komilov N, 1999), insonning ma'naviyati (Abdulla Sher., Husanov B, 2008), tasavvuf ta'limotida ma'naviyat (Komilov N, 1999), insonning ma'naviyati (Abdulla Sher., Husanov B, 2008), insonning ma'naviyati (Abdulla Sher., Husanov B, 2008), insonning ma'naviyati (Abdulla Sher., Husanov B, 2008).

Metodologiya

Movarounnahr mutasavviflari bo'lgan mashhur allomalar Hakim at-Termiziy, Abu Nurob al-Naxshabiy, Abul Abbas Sayyoriy, Yusuf Hamadoni, Abdulkarim al-Kushayriy, Najmiddin Kubro, Abduholiq G'ijduvoni, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshbandiy, Abdulqodir Giloniy, Sulaymon Boqirg'oni, Imom G'azzoliylar, shuningdek, Abu Rayxon Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Al-Kindiy, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiy, Abduraxmon Jomiy, Mirzo Bedil, Alisher Navoiy, Imom Buxoriy va boshqa mashhur mutafakkir allomalarning diniy va dunyoviy qarashlari o'z davrida jamiyat ma'naviy yuksalishiga o'z ta'sirini ko'rsatganligi qiyosiy tahlil etilgan. Ular yaratgan asarlar ijtimoiy-ma'naviy hayotning turli jabhalariga kirib borib tarixda chuqur iz qoldirganligi, tasavvufiy asarlarda diniy va dunyoviy go'zallik masalalari tarixiylik nuqtayi nazaridan o'rganilgan.

Natija va muhokama

Tasavvufga oid asarlarda go'zallik Allohga xos deb ta'kidlanadi, Allohning go'zalligi farannum etiladi, Allohning yaratuvchiligi, karomatlari, Muhammad payg'ambarning o'zlari va Harindoshlari, qilgan ishlari va so'zlari barchasi go'zaldir deyiladi. Jumladan, Muhammad payg'ambar o'z faoliyatining birinchi qadamlaridanoq, ma'naviyat muammolari, uning shakllari, mezonlari masalasiga katta e'tibor berdi. U o'zini Ollohning bandalarni to'g'ri yo'lga solish uchun yuborgan Rasuli ekanini ko'rsatadi.[1.18] "Men faqat go'zal axloqni mukammallashtirish uchun yuborildim", degan. [2.53] Tasavvufiy asarlarda islom ta'limotining barcha qonun qoidalari so'zsiz tan olinib, jamiyat va axloq talablarini aks etgan tasavvufiy go'zal qarashlar tizimi aks etgan.

Inson go'zalligi tushunchasi ham asosiy g'oyalardan biri bo'lib, birinchidan, insonning o'zi bir butun yaxlit tizim sifatida go'zallikning namunasi hisoblanadi, ya'ni "surati go'zal qiyofada paydo bo'lgan" (inson), deyiladi. Ikkinchidan, insonning ichki olami, unga ruh ato etilgani inson go'zalligining ikkinchi tomonidir, deb belgilangan.

Insonning ma'naviyat muammolari, uning shakllari, mezonlari masalasiga katta e'tibor berdi. U o'zini Ollohning bandalarni to'g'ri yo'lga solish uchun yuborgan Rasuli ekanini ko'rsatadi.[1.18] "Men faqat go'zal axloqni mukammallashtirish uchun yuborildim", degan. [2.53] Tasavvufiy asarlarda islom ta'limotining barcha qonun qoidalari so'zsiz tan olinib, jamiyat va axloq talablarini aks etgan tasavvufiy go'zal qarashlar tizimi aks etgan. Inson go'zalligi tushunchasi ham asosiy g'oyalardan biri bo'lib, birinchidan, insonning o'zi bir butun yaxlit tizim sifatida go'zallikning namunasi hisoblanadi, ya'ni "surati go'zal qiyofada paydo bo'lgan" (inson), deyiladi. Ikkinchidan, insonning ichki olami, unga ruh ato etilgani inson go'zalligining ikkinchi tomonidir, deb belgilangan. Insonning ma'naviyat muammolari, uning shakllari, mezonlari masalasiga katta e'tibor berdi. U o'zini Ollohning bandalarni to'g'ri yo'lga solish uchun yuborgan Rasuli ekanini ko'rsatadi.[1.18] "Men faqat go'zal axloqni mukammallashtirish uchun yuborildim", degan. [2.53] Tasavvufiy asarlarda islom ta'limotining barcha qonun qoidalari so'zsiz tan olinib, jamiyat va axloq talablarini aks etgan tasavvufiy go'zal qarashlar tizimi aks etgan.

ilmida, insonni (jism, ruh, aql) mukammal mavjudot sifatida ta'riflab, "mo'tabar hilqat", "yuqori martabali zot", "yaratuvchining yerdagi xalifasi" (islom) deya e'zozlaydi.

"Inson nima, nega u shunchalik buyuk aqli, qilni qirq yoradigan zakovati bilan mo'jizalar yaratishga qodir bo'lgani holda, yana tuban ishlarga qo'l uradi, hayvoniy hirsu nafs domiga tushib o'zini xarob etadi, degan savollar Sharq mutafakkirlari qalbini qadimdan bezovta qilib kelgan".[4.3]

G'azzoliyga ko'ra, go'zallik, inson va uning ichki sifatleri (hulqi, odobi, axloqi)dadir, Umar Xayyom (1048-1123) esa, go'zallikni go'zal yuz bilan bog'lab talqin etadi. "Go'zallik barcha tillarda vasf etiladi va har qanday aqlga xush keladi. Dunyoda yaxshi narsalar ko'p, ularni ko'rib bahramand bo'lish odamlarni shod etadi va tabiatlarini pokiza qiladi, ammo hech narsa go'zal yuz o'rnini bosa olmaydi, chunki go'zal yuz shunday quvonch baxsh etadiki, boshqa hech qanday quvonch unga teng kelolmaydi. Go'zal yuz to'rt fazilatga egadir. Ulardan biri shuki, go'zal yuz uni ko'rgan odamning shu kunini xayrli etadi, ikkinchisi hayotdan bahramand bo'lish onlarini shirin qiladi, uchinchisi u odamni ochiq ko'ngilli va oliyjanob etadi, to'rtinchisi boylikni ko'paytiradi va yuqori mansab ato etadi". [5.54]

Inson tashqi ko'rinishidan go'zal bo'lsa, albatta bu uning go'zalligini bildirmaydi, o'sha go'zallik insonning ichki insoniylik xususiyatlari bilan o'yg'unlikda bo'lsagina, u inson go'zal bo'lishi mumkin. Tasavvufiy manbalarning barchasida go'zallikka alohida nozik bir munosabatni ko'ramiz. Go'zallik va xunuklik, ulug'vorlik va tubanlik, fojaviylik va kulgulilik, mo'jizaviylik va xayoliylik, qiziqarlilik va zerikarlilik kabi estetik mezoniy tushunchalarning o'zaro dialektik aloqadorligida narsa va hodisalar mohiyatini tushuntirishda, olam, borliq, tabiat, jamiyat va inson tabiatining go'zal deb baholangan xususiyatlari ifodalangan.

Tasavvuf falsafasida "go'zallik va xunuklik" tushunchasi sinkretik holatda uchraydi. Tasavvufiy go'zallik mahorat bilan tasvirlangan, go'zallik va xunuklik o'rtasidagi dialektik aloqadorlik, o'zaro ta'sir, bir-biriga ziddiyatli munosabat sifatida ko'rsatilgan. Tasavvuf she'riyatida, hikmatlarda, qissa va yirik badiiy asarlarda "go'zallik va xunuklik", "ulug'vorlik va tubanlik" bir-biri bilan solishtirilib, baholanib ifodalanadi. Go'zal insonlar, go'zal onlar, go'zal ismlar, go'zal odatlar, go'zal hislar, go'zal majlislar va boshqa ko'plab go'zal narsa va hodisalar ifodalangan, mazkur ta'riflar insonni hayratga, zavqqa solmay qo'ymaydi.

Alisher Navoiy asarlarida "go'zal", "go'zallik", "chiroy", "xusn" kabi tushunchalar bilan izohlangan yuzlab ma'lumotlar bilan tanishish mumkin. Binobarin, "Majolis un-nafois" asarida "Oydin go'zal bo'lgan chehrasining sahifasi yodi bilan Qur'ondan fol ochsam, "Yusuf surasi" chiqdi. Bu yerda qalamga olingan Qur'oni karimdagi 111 oyatdan iborat "Yusuf surasi"da go'zallik timsoli Yusuf payg'ambar qissasi bayon etiladi. [6.150]

"Zuhra go'zallik, muhabbat hamda musiqa ahli xomiysi sanaladi", deb aytgan.[7.131] Shuningdek, "Sano' ul hasan" (Go'zal san'atlar), "Haft paykar" (Yetti go'zal) kabi risola va dostonlari ham diqqatga sazovordir.

Tasavvuf falsafasida deydi, tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov "Inson tarbiyasi, insonni nuqsonlar, gunohlardan qutqarish ulug' ajdodlarimizning qayg'usi bo'lib kelgan. Ular savob va gunoh, soya va nur, rahmon va shayton, xayru sharr chegarasida yaratilgan inson degan mubham xilqatni anglash, unga rahmoniy va shaytoniy quvvatlarni qachon, qayerda kuchga kirishi, bu kuchlarning sababi nima ekanligini tushunishga jiddiy ahd qilganlar".[8.150]

Darhaqiqat, insonning har bir xatti-harakati va niyati ham axloqiylikka, ham nafosatga tegishli bo'ladi, ya'ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezgulik (ichki go'zallik), ham nafosat (tashqi

go'zallik) xususiyatlarini mujassam qiladi. Shu bois Suqrot, Aflotun, Forobiy singari qadimgi faylasuflar ko'p hollarda axloqlikni ichki go'zallik, nafosatni tashqi go'zallik tarzida talqin etganlar.[9.167]

Go'zallik va inson go'zalligi masalalari ma'naviyat va axloqlik bilan bog'liqdir. Bu g'oyani Aristotelning ideal grek fuqarosi haqidagi tassavvurlari, uning kalokagatiya ta'limotida o'z ifodasini topganligida ko'rish mumkin. Aristotel birinchi bo'lib axloqshunoslikni ruhshunoslik bilan siyosatshunoslik oralig'idagi alohida falsafiy fan sifatida taqdim etdi va unga (keyinchalik Yevropada qabul qilingan) "etika" degan nom berdi.

Didro fikricha: "Butun dunyo go'zallik haqida o'ylaydi." [10.308] Go'zallik ham boshqa estetik xususiyatlar kabi o'z unsurlariga ega bo'lgan yaxlitlik. Chunonchi, chiroylilik, noziklik, latofatlilik, malohatlilik, injallik singari sifatlarni uning unsurlari deyish mumkin. Ammo, bu unsurlarning hech biri alohida-alohida olinganda, hatto mujassam tarzda olinganda ham go'zallik bo'la olmaydi". [11.209] Zero, "chiroyli narsaning sifati bizning manfaatimiz uchun hamoxang bo'lmasa yoki bizning maqsadlarimizga mos kelmasa u har qancha maftunkor bo'lmasin go'zallik sifatida baxolanmaydi". [9.167]

Tasavvufda inson qalbi go'zalligining immanent xususiyatlari, yopiq, germetik shaklda emas, aksincha "Men" va insoniyatning mohiyatini tushunish, ma'naviy fazilatlarini shakllantirish mexanizmlari orqali tasavvufiy yechim, g'oya va nazariyalari qadriyatlarining aksiologik mohiyati bilan, muhim metodologik manba vazifasini o'taydi.

Tasavvufiy badiiy asarlarda go'zallik va go'zallikni tarannum etuvchi, go'zallikni izohlovchi tushunchalar mavjud. Ayniqsa, inson go'zalligi (axloqligi, estetikligi) masalasiga alohida qaralib, go'zallikka eltuvchi darajalar ishlab chiqilgan. "Islom nazarida shariat hukmlariga ichki va tashqi tarafdin to'la ergashgan kishining hayoti go'zal bo'ladi. Yuzaki amali yaxshi bo'lib, ichki olami buzuq bo'lgan kishi ruhidan ajralgan jasad kabidir. Botiniy ma'naviyatlari kamolga yetgan-u, zohiriy amali ko'zda tutilganidek yaxshi bo'lmagan kishi - o'zi yaxshi-yu, lekin yuzi xunuk, ko'zi ko'r, oyog'i oqsoq odam kabidir", deyilgan. [12.166]

Tasavvufiy go'zallik xilma xil mohiyatga, ko'rinishga ega bo'lib, axloqiy-estetik ongni shakllantirishdek funksional vazifasini muvaffaqiyatli bajaradi, axloqiy-estetik g'oyalar uzoq yillar davomida kishilarning ma'naviy-madaniy hayotini estetiklashib, ilmiy-falsafiy hamda badiiylik xususiyatlari bilan o'sha davr uchun axloqiy-estetik ideallari, ehtiyojlarini shakllanishida samarali omillardan biri hisoblangan.

Tasavvufiy go'zallikning xilma xilligi, uning chinakam pragmatik asoslari, belgilangan axloqiy-ma'naviy me'yorlarning ishlab chiqilishi, ularga amal qilishi, uning paradigmalar jihatlarini, ya'ni, diniy va dunyoviy go'zallik to'g'risidagi falsafiy-ilmiy, badiiy-estetik, axloqiy-diniy nazariyalarni yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Insonlar o'rtasidagi ma'naviy-go'zal munosabatlar, xususiyatlar ma'naviy o'zlikni anglashga, idrok etishga olib kelgan, ajdodlarimiz tomonidan "insoniylik", "odamiylik" me'yorlari hamda konsepsiyalari ham ishlab chiqilgan.

"Tasavvufiy go'zallik" aks etgan "tasavvufiy badiiy asarlar"da tasavvufiy g'oya va nazariyalar, tasavvufiy bilim badiiy usul va vositalar yordamida (she'riyat, musiqa) ramziy uslubda (ishq, muhabbat, mahbub, go'zallik, oyna, san'atkor, ijod) tasvirlangan. Bu badiiy qonuniyat hisoblanadi, o'z fikrini ijodiy uslubda tushuntirish san'atning murakkab xususiyatlaridan biri bo'lib, ko'pma'nolikni yuzaga keltiradi. Tasavvufiy asarlarning san'at darajasiga ko'tarilishining asl mohiyati ham shundadir. Asarlar shu darajada ko'pma'noliki, bir

tomondan qarasaq, kundalik insoniy munosabatlar ifodalangan, ikkinchi tomondan qarasaq, sof diniy mazmun aks etgan, uchinchi tomondan qarasaq, yuksak, badiiy asar yaratilgandek.

Tasavvufiy go'zallik jamiyat va insonlarning estetik ongi va madaniyatining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. Tasavvufiy bilim, tajribaga ega bo'lgan kishilar manbalarda keltirilgan hikmatlar, nasixatli so'zlari bilan diniy tartib-qoidalarga rioya etishlari uchun, komillikka erishishlari uchun kishilar o'rtasida kuchli targ'ibot va tashviqot ishlarini olib boradi, o'zlarining tasavvufona hayotlari va amallari bilan ibrat ko'rsatadilar.

Tasavvufiy asarlarda insonni odamiylikka, ma'naviy yuksalishga, komillik va yetuklikka olib boruvchi tartib qoidalar, odob-axloq me'yorlari har bir mutafakkirning asarlaridan o'rin olgan. Tasavvuf allomalari yaratgan ma'naviy meros, uning qadriyatli metodologiyasi hozirgi kunda ham yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda, ularda yuksak ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Tasavvuf falsafasida go'zallik va inson go'zalligini namoyon bo'lishi qo'yidagi jihatlar bilan belgilanadi:

- ta'limotda go'zallik Allohni jamolini, fazilatlarini, kuch-qudratini ifodalashda aks etadi;
- tasavvuf falsafasida go'zallik hayotda, tiriklikda, jamiki yaratilgan va mavjud bo'lgan real narsa va hodisalarda, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni in'ikos ettirishda ko'rinadi;
- inson go'zalligini ko'rsatib beradigan, yuzaga chiqaradigan go'zallik unsurlari, elementlari va xususiyatlarida aks etadi;
- go'zallik ijodda, ong va tafakkurda, yaxshi amallarda, insoniy fazilatlarda, adolatda, odob-axloqda, ustoz-shogirdlikda, bilim va ma'rifatda namoyon bo'ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf ta'limoti XIII-XIV asrlarda o'zining yuksak bosqichiga erishadi. Bu ta'limot vakillari nafaqat tasavvufiy g'oya va nazariyalarni ilgari suradilar, ular o'zlari ishlab chiqilgan nazariya va amallariga qat'iy amal qiladilar. Birinchidan, ular sharqqa xos tasavvufiy tafakkur tarzini, axloqiy me'yorlarni ishlab chiqib, o'ziga xos ma'naviyat, madaniyatni shakllanishiga ta'sir ko'rsatganlar, ikkinchidan, o'zining butun fikri-zikrini Allohning go'zal visolini ko'rishga bag'ishlaydi, halol mehnat qilib, pokiza va ozoda hayot tarzini targ'ib qiladilar, uchinchidan, ular yaratgan ta'limot o'zining pragmatik jihatlari bilan o'ziga jalb qiladi, chunki, ularning g'oyalariga shunchalik e'tiqod qilish kuchli bo'ladiki, bu hodisa o'sha davr kishilarining hayotiga chuqur kirib borganligidan ma'lumdir.

Adabiyotlar/Литература/ References:

1. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – T.: Universitet, 1998. – 18 b.
2. Кунрапа Закои. Алвидо дунё! Ассалом охират. Учинчи китоб, – T.: Мовароуннахр, 1996. – 53 б.
3. Фалсафа қисқача изоҳли луғат. – T.: Шарқ, – 19 б.
4. Комилов Н. Комил инсон ҳақида тўрт рисола. – T.: Маънавият, 1997. – 3 б.
5. Умар Хайём. Наврўзнома. – T.: “Меҳнат”, 1990. – 54 б.
6. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. – 150 б. www.ziyouz.com кутубхонаси.
7. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. – 131 б. www.ziyouz.com кутубхонаси.

8. Комилов Н. Тасаввуф. 2-китоб. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат, Ўзбекистон, 1999. – 150 б.
9. Абдулла Шер., Ҳусанов Б. Ахлоқ фалсафаси, Нафосат фалсафаси. – Т.: Ўқув қўлланма, 2008. – 167 б.
10. История эстетики. Памятники мировой эстетической мысли. – М.: II Том. Издательство Искусство. 1964. – 308 с.
11. Абдулла Шер. Эстетика. – Т.: O'zbekiston, 2015. – 209 б.
12. Каттаев К. Махдуми Аъзам тарихи ва мукамал даҳбедийлар тариқати. – Т.: Mashhur press, 2016. – 166 б.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 5/8 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).